

## REKREATIVLIKNI ZAMONAVIY JURNALISTIKADA TUTGAN O‘RNI

Sobitjonova Kamola

O‘zMU, Jurnalistika fakulteti magistranti

### **Annotasiya:**

*Jahon OAVni rekreativ jurnalistika tomon o'zgarishi, jumladan interaktiv ko'rsatuvlarning rivojlanishi, jonli efirning yuzaga kelishi milliy jurnalistikada ham kuzatila boshladi. Bugungi kunda ushbu rukindagi jurnalistik materyallarning sonining ortib borishi teledasturlarda balki, onlayn nashrlar, bosma nashrlar, radio sohasida ham o'ziga xos yonalishga aylanib ulgurdi. Ushbu maqolada "rekeativ" tushunchasining jurnalistika sohasiga kirib kelishi hamda yangi rekreativ tarmoqlarni yuzaga kelishi yuzasidan tahlil olib boriladi.*

**Kalit so‘zlar:** *Rekreativlik, rekreativ dasturlar, madaniy-ma’rifiy, integratsiyon janrlar.*

### **THE ROLE OF RECREATION IN MODERN JOURNALISM**

**Abstract.** *The change of the world mass media towards recreational journalism, including the development of interactive shows, the emergence of live broadcasting, began to be observed in national journalism as well. Today, the increase in the number of journalistic materials in this column has become a kind of fire in TV programs, as well as in online publications, printed publications, and radio. This article analyzes the entry of the concept of "recreational" into the field of journalism and the emergence of new recreational networks.*

**Key words:** *Recreation, recreational programs, cultural-educational, integration genres.*

### **KIRISH**

Rekreativlik telejurnalistikaning axborot yetkazish raqobatda bo'lgan asosiy vazifasi hisoblanadi. Ammo, bugun milliy televideniyamizning efirlar dasturini tahlil qilib ko'rsak, bir kunlik efir setkasining taxminan 70% qismini rekreativ mediasarlar tashkil etishini kuzatish mumkin. Jahon OAVni rekreativ jurnalistika tomon o'zgarishi, jumladan interaktiv ko'rsatuvlarning rivojlanishi, jonli efirning yuzaga kelishi milliy jurnalistikada ham kuzatila boshladi. Telekanallar auditoriya talab va ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda dasturlar tayyorlashga kirishdi. Tabiiyki, taraqqiyotning bunday

shiddati OAV, xususan, kuchli ta'sir va keng auditoriyaga ega bo'lgan TV zimmasiga mas'uliyatli vazifalarni qo'yimoqda. Zamonaviy hayotning o'zi televideniedan, telejurnalistikadan, jurnalistlardan mutlaqo yangicha ishlashni taqozo etmoqda. Ayniqsa, rekreativ jurnalistika tobora rivojlanib borayotgan bugungi kunda jurnalist oldiga qo'yiladigan talablar ham ortib bormoqda.

## ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

*Xo'sh, rekreativ jurnalistikaning tez tomir yoyib, OAV kanallarini shiddat bilan egallashiga sabab nimada?*

Eng avvalo, terminning lug'aviy ma'nosiga e'tibor qaratsak. **“Rekreatsiya”** lotin tilidan olingan bo'lib, **recreatio** — qayta tiklash degan ma'noni anglatadi. Rekreatsiya dam olish orqali insonning ma'naviy va jismoniy quvvatini tiklash va rivojlantirishdir[1,B.44]. Rekreatsiya nafaqat jurnalistika sohasida, shu bilan birga ijtimoiy hayotning boshqa sohalarida, madaniy-ma'rifiy faoliyatda, ta'lim-tarbiya jarayonlarida keng qo'llanila boshlandi. Rekreatsiya hayot tashvishlaridan horigan odamning normal ish holatini tiklash va sog'lom tarzda ishga mehrini qayta jalb etishga qaratilgan sog'lomlashtirish tadbirlari majmuidir[2,B.32]. **Rekreatsiyaga** ta'rif berilar ekan, tushuncha dam olishning barcha turlari (profilaktoriyda sog'lomlashtirish, sanatoriyada hordiq chiqarish, tabiat qo'yniga sayr, xorijga turistik sayohatlar kabi)ni qamrab oladi. Bir so'z bilan aytganda uydan tashqarida mehnat layoqatini tiklash, hissiy va psixologik kuch-quvvatni mo'tadillashtirish rekreatsiyaning asosiy maqsadi hisoblanadi. Mazkur so'z 1960-yillardan boshlab aholining kuch-quvvat va salomatligini tiklash muammolariga qaratilgan fiziologik, tibbiy va ijtimoiy-iqtisodiy adabiyotlarda qo'llanilgan[3,B.122]. Shunga qaramay, bunday jurnalistik faoliyatga bo'lgan munosabat juda yuqori bo'lib, go'yo dam olish funktsiyasi ikkinchi darajali asosiy yo'nalishni anglatadi.

## NATIJALAR

*Zamonaviy jurnalistika milliy segmentida rekreativ yo'nalsihni OAVda quydagicha tasniflash mumkin:*

**Radio jurnalistika** – ushbu, yo'nalishda rekreativlik o'ziga xos tarzda musiqiy ko'ngilochar dasturlar bilan hamohang tarzda shakllandi. Masalan “Quvnoq karaoke”(“Grand” radiosi), “Tabriklar va dil istaklari”(“Yoshlar” radiosi), “U kim bu nima?” (“O'zbegim taronasi” radiosi), kechki dasturlarda asosan tinglovchilar bilan birgalikda interaktiv tarzda dasturlar olib boriladi. Radioda ushbu, yo'nalishdagi dasturlarni rang-barang musiqalarsiz tasavvur etib bo'lmaydi.

*Matbuotda* - rekreativlikning paydo bo'lishi, vaqt o'tishi bilan yuzaga kelgan boshqa medialarda ham ko'rina boshladi. Jumladan, rekreativ jurnalistikaning bir tipi sifatida sayohatli jurnalistikasi vujudga keldi. Rekreativlikning yuqori darajadigi elementlari matbuot nashrlarida asosan tijoriylashgan gazetalarda rang-barang krasvord, chaynvord, sayohatnoma rukinidagi maqolalar, yulduzlar hayotiga oid qiziqarli faktlar vahokazolar bilan ifodalandi.

*Onlayn jurnalistika* – ushbu, sohada rekreativlik asosan jurnalistik materyallarda multimediamiy materyallar bilan jonlantiriladi(audio, video, infografika vahokazolar bilan ifodalanadi).

## MUHOKAMA

### Televizion jurnalistikada rekreativlik.

Televideniya paydo bo'lishi bilan ommaviy axborot vositalari tizimida sifat o'zgarishi yuz berdi — insoniyat ijtimoiy hayot voqealarini bevosita ko'rish imkoniyatiga ega bo'ldi, ijtimoiy ong bilan ijtimoiy borliq o'rtasida eng qisqa va qulay yo'l barpo etildi, inson ongiga va his-tuyg'usiga ta'sir etishning ishonchli vositasi vujudga keldi. Televideniya garchi so'zni bosma ravishda ko'paytirmasdan ijtimoiy hayotni ovoz va tasvir vositasida aks ettirsada, u matbuotning, ommaviy axborot vositalarining bir turi hisoblanadi va uning strukturasi asosida ish ko'radi[4.B.43]. Auditoriyani keng qamrab olish hamda uning asosiy axborot kanaliga aylanishi uchun ommaviy axborot vositalari orasida radioda deyarli 40 yil, televideniya 13 yil vaqt kerak bo'lgan. Jurnalistika nazariyasining asosiy qonuniyatlari va tizimidan kelib chiqilsa, ma'lum bo'ladiki, hozirgi kunga qadar mutaxassislar tomonidan televideniyaning an'anaviy funktsiyalari sifatida axborot tarqatish, madaniy-ma'naviy, integrativ, ijtimoiy-pedagogik, tashkilotchilik, ta'limiy, rekreativ va boshqalar ko'rsatib kelingan[5,B.77]. Televideniya orqali uzatiladigan ma'lumotlar OAVning boshqa turlari tomonidan beriladigan axborotlardan audiovizual xususiyatlarni mujassamlashtirgani bilan farqlanadi. TV internetdan ommaviylik nuqtai nazaridan ustunroqdir. Demak, teletomoshabin televideniya aynan audiovizual axborot kutadi. Bugungi kunda G'arb jurnalistikasida materiallarning teng yarmini ko'ngilochar yo'nalish egallagan (50%), yangiliklar – 30%, ma'naviy-ma'rifiy – 20% ulushni tashkil etgan. Sharqda esa ijodiy ishlarning 40 foizini ko'ngilochar yo'nalish qamrab olgan. Xususan, A.Kozirevning tasnifiga ko'ra televideniyaning vazifalari quyidagilarni qamrab oladi:

- axborot vazifa;
- madaniy-ma'rifiy vazifa;
- integrativ vazifa;
- ijtimoiy-pedagogik vazifa;

- tashkilotchilik vazifasi;
- ta'limiy vazifa;
- rekreativ vazifa

Muallif rekreativ vazifaga to'xtalar ekan, shunday ta'rif keltiradi: Rekreativlik – bu dam olish, hordiq chiqarish, kuch-quvvatni tiklash demakdir. Jurnalistlar rekreativ yo'nalishdagi ko'ngilochar dasturlarniyaratishda muharrir yoki boshlovchi sifatida o'zlari ham ishtirok eta oladilar. Bu guruhga hujjatli seriallar ham kiritiladi. Bunday namunalarda tomoshabin qahramonlarning harakatlarini kuzatish, his qilish va o'z fikrlarini bildirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Zamonaviy jurnalistikada rekreativlik asosiy yo'nalish sifatida jurnalist tayyorlayotgan materyalning asosiy xususiyatini tashkil qilmoqda. Bu o'z navbatida auditoriya ehtiyojlari bilan bog'liqdir.

### **XULOSA**

Xulosa qilib aytganda zamonaviy jurnalistikada rekreativ dasturlar shunchaki ko'ngilochar bo'libgina qolmay, balki hamisha ijodkorlikka asoslanishi lozim. Ana shu ijodkorlik asnosida nodavlat telekanallarning turli televizion dasturlar namoyon bo'ladi. Har bir muallif mavzu, tasvir va ma'lumotlarni jamlagan holda dastur uchun eng munosib janrni tanlay olishi uning mahortini belgilaydi. Tabiiyki, bu murakkab jarayon. Chunki, janrlarning bir nechtaligi va integratsiyalashuvi muallifni biroz o'ylantirishi aniq. Bugungi kunda rekreativ ruhdagi ko'rsatuvlarda aynan shu jihat ustunlik qiladi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Eliseeva A.A. Osnovi rekreologii (geograficheskiy aspekt): uchebnoe posobie / A.A. Yeliseeva. - Smolensk: Print-Ekspress, 2011.
2. <https://ru.wikipedia.org/wiki/Rekreatsiya>, 25.04.2016.
3. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Televideniya>
4. Kuznetsov G.V, Svik V.L, Yurovskiy A.YA. Televizionnaya jurnalistika. 4-ye izd. M.: Izd-vo MGU, 2004.